Savob ishning xosiyati

2022 yil 18 aprel kuni KXM fakulteti xotin -qizlar masalalari bo‘yicha dekan maslahatchisi N. A. Xoliqova va fakultet xotin - qizlarining tashabbusi hamda fakultet dekani K. Shavvazov tashabbuslari bilan “Savob ishni har kim har kuni qilishi kerak” iborasiga amal qilgan holda 3 - TTJ da yashovchi QXM fakulteti qizlariga iftorlik dasturxoni yozildi.

Bu tadbirni tashkillashtirib, yaqindan yordam bergan fakultet dekani o‘rinbosari A. Baratov, xotin - qizlar maslahat kengashi raisasi N. Xoliqova hamda barcha ustozlar tyutorlarning xizmati beqiyos. Iftor dasturxoniga tayyorlangan pishiriqlarni qizlarimiz o‘z qo‘llari bilan mazali qilib tayyorlashdi. Bir dasturxon atrofida o‘z farzandlaridek mehr ko‘rsatib, ularni ardoqlagan fakultetga olloh o‘z rahmatlarini beqiyos yog‘dirishi tabiiy. Bu tadbirdan qizlarimiz yanada ma’naviy kuch olib ustozlariga minnatdorchilik bildirishdi.